



KATTA GURUH 5-6 YOSHLI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvaliyeva Elmira Tolib qizi

Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada katta guruh bolalari uchun o'yin faoliyatining ahamiyati va uni shakllantirish usullari yoritiladi . 5-6 yoshli bolalarni o'yin faoliyatiga jalb qilish va o'yinning bolaga bo'lgan ta'siri ustida so'z yuritiladi.

Annotation: This article highlights the importance of play activities for large groups of children and methods of its formation. Involvement of 5-6-year-old children in game activities and the influence of the game on the child are discussed.

Абстрактный: В данной статье подчеркивается значение игровой деятельности для больших групп детей и методы ее формирования. Обсуждается вовлечение детей 5-6 лет в игровую деятельность и влияние игры на ребенка.

Kalit so'z: O'yin faoliyati , vazifalari , metod , shaxs, ta'lif, psixik taraqqiyot, individual o'yinlar , jamoaviy o'yinlar , o'yin soatlari

Key word

Game activities, tasks, method, personality, education, mental development, individual games, team games, game hours

Ключевое слово: Игровая деятельность, задания, метод, личность, воспитание, умственное развитие, индивидуальные игры, командные игры, игровые часы

Òyin faoliyati — bu insonning o'yin orqali o'zini ifoda etishi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashi hamda hissiy tajribalarni oshirishi. Bolalarning hayotini o'yin faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa , maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yin faoliyati bolalar kun tartibining asosiy qismi hisoblanadi. MTT larda bolalar uchun moslangan faoliyatlarning aksaryati o'yin tarzida olib boriladi. O'yinlarni tashkil etishda uning bolaning yoshiga



mos bo'lishi , sog'ligi va qiziqishlari e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin - bolalar dunyosidagi eng asosiy faoliyat turlaridan biri. Ayniqsa, 5 yoshli bolalar uchun o'yin hayotning markaziy qismi hisoblanadi. O'yin faoliyati orqali bolalar atrof-muhitni o'rganadilar, muammolarni hal qilishni, ijtimoiy munosabatlarni va o'z-o'zini boshqarishni o'rganadilar. Bu jarayon ularning rivojlanishi va kattalar hayotiga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Katta guruhda bolalarning o'yin faoliyatini takomillashtirish esa pedagoglar uchun dolzarb vazifalardan biridir.O'yin faoliyatining mazmuni va ahamiyati :

Katta guruhda o'yin faoliyatini shakllantirishning asosiy usullari:

1. Rolli o'yinlarni tashkil qilish: 5 yoshli bolalar, odatda, rolli o'yinlarda o'zlariga yaqin rollarni tanlashadi, masalan, shifokor, o'qituvchi, haydovchi va boshqalar. Rolli o'yinlar orqali bolalar real hayotdagi rollarni sinab ko'radilar va turli vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. Bu jarayonda pedagogning vazifasi bolalarga to'g'ri yo'naltirish berish, yangi vaziyatlar yaratib, o'yinlarni boyitish hisoblanadi.

2. Didaktik o'yinlar orqali o'qitish: Didaktik o'yinlar bilimlarni mustahkamlash va qiziqarli tarzda o'rgatish uchun samarali hisoblanadi. Bu o'yinlar bolalarning diqqatini bir joyga jamlash, analistik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, "kim tez topadi?" kabi o'yinlar bolalarning e'tiborini oshiradi va ularga tezkorlik bilan harakat qilishni o'rgatadi.

3. Konstruktorlik va ijodiy o'yinlar: 5 yoshli bolalar konstruktorlik va ijodiy o'yinlar orqali o'z qobiliyatlarini yanada kengaytiradilar. Ular bloklar va konstruktordan foydalanib, o'zlariga mos keladigan narsalarni yaratadilar. Bu jarayon ularda sabr-toqat va qo'l motorikasini rivojlantiradi. Bunday o'yinlar vaqtida pedagog bolalarga yangi g'oyalar taklif qiladi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiradi.

4. Harakatlari va sport o'yinlari: Katta guruhda bolalar ko'proq jismoniy faollik bilan shug'ullanishga moyildirlar. Harakatlari o'yinlar bolalarda jismoniy kuch-quvvatni oshirish, koordinatsiyani rivojlantirish va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, "Kim chaqqon?" o'yini bolalarda



tezkorlikni rivojlantiradi, jamoa o‘yinlari esa ularni birgalikda harakat qilishga undaydi. Katta guruhda o‘yin faoliyatini takomillashtirishda pedagogning roli juda katta. U o‘yinlarni tashkil qilish va boshqarish bilan birga, bolalarni o‘yinga qiziqtirish, ularga yangi qiziqarli vazifalarni taklif etish orqali rivojlantiradi. Pedagog bolalar bilan individual ish olib borib, har bir bolaning rivojlanish darajasiga qarab yondashadi. Shu bilan birga, o‘yinlarda qiyinchiliklar yoki ziddiyatlar paydo bo‘lsa, pedagog buni hal qilish uchun aralashishi kerak.

Takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari:

- O‘yin uchun muhit yaratish: Bolalar uchun maxsus o‘yin zonalarini tashkil qilish ularning o‘yin faoliyatini yanada jonlantiradi. Katta guruhda o‘yin maydonchasini turli qismga bo‘lib, har bir qismda muayyan o‘yin turlarini tashkil qilish o‘rinli.

- Interfaol o‘yin usullarini qo‘llash: Zamonaviy texnologiyalar yordamida turli interfaol o‘yinlarni tashkil qilish bolalarda yangi bilimlarni o‘zlashtirish va fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

-Boshqa yosh guruhlar bilan o‘yinlar tashkil qilish: Katta guruhdagi bolalarga kichikroq yoki katta yoshdagi bolalar bilan birgalikda o‘yinlar tashkil qilish ularda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu orqali ular boshqalarni tushunish, fikrlarini ochiq ifodalash va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

- Pedagog va ota-onalar hamkorligi: Katta guruhda o‘yin faoliyatini takomillashtirishda ota-onalarning roli ham muhim. Pedagoglar ota-onalarga o‘yin faoliyatining ahamiyati haqida tushuntirish va ular bilan hamkorlik qilish orqali bolalarning qiziqishlarini yanada oshirishlari mumkin.

-O‘yin bolalar uchun ijtimoiy axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, "do‘slik", "yordam", "halollik" kabi tushunchalarni o‘yinlarda o‘zlashtirish mumkin. Rolli o‘yinlarda bolalar bir-biriga yordam berish, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, xato qilgan do‘sclarini tushunish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, "Kasb o‘yinlari" orqali shifokor, o‘qituvchi, quruvchi rollarida o‘ynab, ular o‘sha kasb egalari bajarishi kerak bo‘lgan mas’uliyatlarni tushunib yetadilar.



-5-6 yoshdagi bolalar ko‘pincha qiziqishlari va tasavvurlarini o‘yinga jalg qiladilar. Pedagoglar va ota-onalar bolalarni ijodiy o‘yinlarga jalg qilish orqali ularning fantaziya va tasavvurlarini rivojlantirishlari mumkin. Masalan, "Orzular o‘lkasi" kabi o‘yinlar bolalar tasavvurlarini yanada kengaytiradi va ularga o‘z orzularini ifoda qilish imkoniyatini beradi. Bu orqali bolalar qiziqarli hikoyalar, fantastik obrazlar o‘ylab topadilar va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini mustahkamlaydilar.

Xulosa qilib aytganda katta guruhda 5-6 yoshli bolalar uchun o‘yin faoliyatini shakllantirish va takomillashtirish bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘sadi. O‘yin faoliyati orqali bolalar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni shakllantiradi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlaniradi. Shu boisdan, pedagoglarning vazifasi o‘yin faoliyatini yanada qiziqarli va mazmunli qilish uchun barcha sharoitlarni yaratishdir. Bu esa o‘z navbatida bolalarning ijobjiy o‘sishi va rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. 5 yoshli bolalar uchun o‘yin faoliyati nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega. Katta guruhda o‘yin faoliyatini yanada takomillashtirish bolalarning intellektual, ijtimoiy va emosional rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlanish uchun ularni mazmunli va qiziqarli o‘yinlarga jalg etishlari, yangi o‘yinlar va vaziyatlarni yaratishlari zarur. Bu esa bolalarning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

- 1.F.SH.Qodirova ,N.Qayumova, M.A’zamova “maktabgacha pedagogika”
“Tafakkur “nashiryoti Toshkent-2019-yil
- 2.SH.A.Sadikova “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur bo’stoni” nashryoti
Toshkent-2013-yil
3. L. S Vygotskiy “ Bolalar muloqot va o‘yin faoliyatini shakllantirish”
- 4.www.pedagog.uz.
- 5.www.ziyonet